

O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA METAFORALARNING MATN YARATILISHIDAGI ROLI

20-maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Sattorqulova Shalola To'ychi qizi

shalolasattorqulova995@gmail.com

+998933210495

O'zbek yozuvchilari tomonidan yaratilgan nasriy asarlarda qo'llangan badiiy metaforalarni kuzatish asosida shuni aytish mumkinki, ular muayyan ijodkorning individual nutqiy uslubiga xos jihatlarni ko'rsatishi bilan birga o'zbek millatiga mansub til egalarining badiiy tafakkuri, til birliklariga bo'lgan munosabatini ham namoyon etadi. O'zbek adabiy tilida qo'llanib kelgan ko'plab metaforalar lisoniy boyligimizga aylangan. Ularni to'plab, leksikografik jihatdan tavsif etish tilshunosligimizning navbatdagi vazifalaridan biridir. Metafora tadqiqiga oid yana bir masala borki, u ham bo'lsa bu hodisaning matn bilan bog'liq jihatlarni o'rganishdir.

Metaforaning matnda voqelanishiga turli jihatlardan yondashish mumkin. O'zbek tilshunosligida metaforalar nazariy jihatdan tadqiq etilgan ishlardataadqiqotchilar asosan so'z-metaforalar haqida fikr yuritganlar¹. Metafora qo'llangan matnlar shuni ko'rsatadiki, ularda nafaqat tushuncha, balki muayyan vaziyat ifodasi ham metaforaga asoslanishi mumkin. SHu boisdan metaforalarni so'z, so'z birikmasi, gap, matn shaklidagi metaforalar sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha, bu hodisani tadqiq etishda avvalo kognitiv (konseptual) hamda lingvistik metaforalarni farqlash lozim. Kognitiv metaforalarni o'rganish unga semantik yondashuvni taqozo etsa, lingvistik metaforalar tadqiqi lisoniy materialga pragmatika, funksionalizm va lingvokulturologiya nuqtai nazari bilan yondashishni talab etadi.

¹ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 94-100; 144-151.

<https://scientific-jl.com/>

Ma'lumki, til tashqi olamga ma'no orqali bog'lanadi. Til belgilari ortida turuvchi hodisalarni o'rganish inson kognitiv faoliyati va nutqiy faoliyat aloqasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'xshatish va qiyos, ko'plab tadqiqotchilar e'tirof etganidek, inson tafakkurida eng ko'p qo'llanuvchi usullardan bo'lib, uning verbal ifodasi til nominatsiyasining serqirra hodisa ekanligini ko'rsatadi. Xususan, konseptual metaforaning verbal bosqichga o'tishi o'zida murakkab kognitiv-semantik jarayonni namoyon etadi. "Metaforada yolg'on va haqiqat o'zaro birlashadi... Metafora nafaqat qisqargan o'xshatish, shu bilan birga qisqargan qarama-qarshilik hamdir", - deb yozadi N.D.Arutyunova.

Darhaqiqat, metaforik ma'noda qo'llangan so'z o'zida ikki xil tushunchaning qiyosi bilan birga ularning o'zaro qarama-qarshiligini ham namoyon etadi.

Metaforalarning matn yaratilishidagi o'rnini tadqiq etishda, bizningcha, avvalo metaforik ma'noli so'z yoki jumlaning mikromatn referensiyasiga munosabatini o'rganish lozim. Bunday matnlarni tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, metaforik ma'noli birlik matn tarkibida asosan quyidagi holatlarda voqe bo'ladi:

- 1) tushuncha ifodasi sifatida;
- 2) vaziyat ifodasi sifatida;
- 3) vaziyatlar yig'indisi ifodasi sifatida.

Metafora tushunchani ifodalab kelganida matn tarkibida so'z yoki so'z birikmasi sifatida reallashadi. Ma'lumki, so'z-metafora matnda qo'llangan biror jumla tarkibidagi predmet, belgi yoki harakat-holat denotatining boshqa bir predmet, belgi yoki harakat-holat denotati bilan qiyosiy munosabatini implitsit tarzda ifodalaydi. SHu boisdan so'z-metaforalarning aksariyati o'xshatish qurilmasining qisqargan shakli ekanligi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. So'z-metaforalar o'zi ishtirok etgan gapda obrazlilikni yuzaga keltirsa-da, ko'p hollarda matnning umumiy semantikasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

So'z shaklidagi metaforalarning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari

tilshunosligimizda etarli darajada o'rganilgan, deyish mumkin². Ularning psixolingvistik va kognitiv jihatlari esa o'z tadqiqini kutmoqda. Kognitiv so'z – metaforalar asosan harakat va belgi bildiruvchi so'zlar semantikasidan anglashilib, o'zida qiyoslanayotgan predmet, hodisa haqidagi tushunchani implitsit tarzda ifodalaydi. Masalan: *Gapi uzilib qoldi; Gapi cho'zilib ketdi; Gapni ulab yubordi* kabi jumalardagi ko'chma ma'noda qo'llangan fe'l o'z semantikasida matn tuzuvchining gapni ip, arqon kabi predmetlarga o'xshatganligini namoyon qiladi. Quyida shu kabi so'z-metaforalarga misollar keltiramiz.

HISSIYOT BU – RAQIB

U birdanyopirilib **kelgan** bu tuyg'uni zo'rg'a **engib**, saroybonga "darvozani qoq", deb imo qildi (O.YOqubov. "Ulug'bek xazinasi" romani). U bir daqiqagina ikkilandi, ko'nglidagi g'alayon bilan bir soniyagina **olishdi** (O.YOqubov. "Ulug'bek xazinasi" romani). To'satdan vujudini qamragan onalik mehri **g'olib kelib**, tortgan azobi ham esidan chiqdi. (P.Tursun. "O'qituvchi" romani)

Misollardan ko'rinadiki, matnlarda metaforik ma'noda qo'llangan so'zlar matn yaratuvchining hissiyotni raqib sifatida tasavvur qilganligidan dalolat beradi. O'zbek tilida hissiyot tushunchasining sham, cho'g', olov kabi yonuvchi narsalarga ham qiyoslanishi quyidagi metaforalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

HISSIYOT BU – YONUUVCHI NARSA

Qalandar esa... ko'nglida Mirzo Ulug'bek hazratlariga hech bir gina-kudurati yo'q. Bil'aks yuragining bir chetida hamon iliq hislar **miltirab turadi**. (O.Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi" romani) O'zbek oyimning g'azabi tag'in ham **alanga oldi**: so'zimni eshitasanmi, kar? (A.Qodiriy. "O'tgan kunlar" romani) YUrakdagi isyonkor tuyg'ular asta-sekin **so'nib**, xayolini allaqanday ma'yus o'ylar band etdi. (O.Yoqubov. "Er boshiga ish tushsa" romani)

O'zbek tilida hissiyot va tuyg'ularni dengiz, daryo, ummon to'lqiniga o'xshatish ko'p uchraydi. Quyidagi matnlarga e'tibor bering:

² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 94-100; 144-151.

<https://scientific-jl.com/>

Boburning boyagi behalovatligi va tushkun kayfiyati endi tarqab ketgan, ko'nglida yana yaxshi istiqbolga ishonch tuyg'usi mavj urar edi.(P.Qodirov. "Yulduzli tunlar" romani).

Matn tarkibida qo'llangan metaforalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular matn referensiyasi shakllanishida o'ziga xos o'rin tutadi. O'zbek tilida yaratilgan nasriy asarlarda til metaforalariga nisbatan individual-muallifiy metaforalar ko'p uchraydi. Ularni tadqiq etish matn tuzuvchi ijodkor shaxsning nutqiy individualligini ochib berish bilan birga metaforalarning kognitiv hamda lingvomadaniy birlik sifatidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov A. Leksik va semantik derevetsiya muammolari. - T.: " Navro'z " 2011.
2. Xojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. - T.: " Fan" 2010.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. , Boqiyeva G.H. , Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q., Abuzalova M. Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T. : " Fan va texnologiya", 2009.
4. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap; "O'zbek tili va adabiyoti", 1986. 6-son
5. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiyalogiyasi. -T.: " Mumtoz so'z ", 2010.